



QASHQADARYO VILOYAT
STATISTIKA BOSHQARMASI

QASHQADARYO
VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

2023- *yil*
yanvar-sentabr



QASHQADARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2023- yil 1- oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Qashqadaryo viloyatida 2023- yil 1- oktabr holatiga doimiy aholi soni **3539,6** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **57,3** ming kishiga yoki **1,6 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1515,9** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **42,8 %**), qishloq aholisi soni **2023,7** ming kishi (**57,2 %**)ni tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3539,6 ming
kishi

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2023- yil 1- oktabr holatiga

Shahar




42,8%

Qishloq



57,2%



Erkaklar



50,7 %

1 793,5 ming kishi

Ayollar




1746,1 ming kishi

Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar



Yosh guruhlari bo'yicha aholi soni

2023- yil 1- oktabr holatiga



2023- yil 1- oktabr holatiga ko'ra, Qashqadaryo viloyat doimiy aholisi sonining **34,4 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **55,7 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar, va **9,9 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Doimiy aholi sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, ming kishi

	2022- yil	2023- yil	O‘sish sur’ati, % da
Qashqadaryo viloyat	3461,4	3539,6	102,3
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	287,2	293,8	102,3
Shahrisabz sh	144,1	146,5	101,7
G‘uzor	215,9	221,0	102,4
Dehqonobod	155,4	158,7	102,1
Qamashi	285,1	291,6	102,3
Qarshi	264,0	270,5	102,5
Koson	302,7	310,2	102,5
Kitob	274,7	280,3	102,0
Mirishkor	126,1	128,8	102,1
Muborak	91,5	92,9	101,5
Nishon	161,8	165,6	102,3
Kasbi	207,1	211,7	102,2
Ko‘kdala	180,1	187,1	103,9
Chiroqchi	260,6	266,2	102,1
Shahrisabz	229,9	233,7	101,7
Yakkabog‘	275,2	281,0	102,1

Tug‘ilganlar soni

Ma’lumot uchun!: tirik tug‘ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo‘lsa bola tirik tug‘ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo‘yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo‘lishi lozim.

Qiz bola:

36,0 ming kishi



O'g'il bola:

39,3 ming kishi


2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **75,3** mingta tug'ilganlar qayd etilgan bo'lib, shundan o'g'il bolalar **52,2 %** ni, qiz bolalar **47,8 %** ni tashkil etadi.

Tug'ilishlarning chaqaloqlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr

3 nafar va undan ortiq egizak
0,1%

2 nafar egizak
2,1%



1 nafar
97,8%

2023- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan tug'ilishlarda 1 nafar va egizak tug'ilgan chaqaloqlar soni bo'yicha tahlil etilganda quyidagi ulushga ega bo'lganligi kuzatildi:

- 1 nafar – **97,8%**
- 2 nafar – **2,1%**
- 3 nafar va undan ortiq – **0,1%**




QASHQADARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Tug‘ilish sonining hududlar bo‘yicha taqsimlanishi

1- oktabr holatiga, kishi

	2022- yil	2023- yil	O‘sish sur’ati, % da
Qashqadaryo viloyat	71726	75294	105,0
<i>hududlar:</i>			
Qarshi sh	5445	5807	106,6
Shahrisabz sh	2391	2455	102,7
G‘uzor	4589	4769	103,9
Dehqonobod	3403	3720	109,3
Qamashi	6210	6584	106,0
Qarshi	5315	5740	108,0
Koson	6494	6974	107,4
Kitob	5212	5461	104,8
Mirishkor	2610	2756	105,6
Muborak	1613	1721	106,7
Nishon	3346	3757	112,3
Kasbi	4378	4512	103,1
Ko‘kdala	2637	4386	166,3
Chiroqchi	8201	6756	82,4
Shahrisabz	3923	3985	101,6
Yakkabog‘	5959	5911	99,2

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **75,3** mingta bola tug‘ilganligi qayd etilgan bo‘lib (bu yerda va bundan keyin tug‘ilganlarga faqat tirik tug‘ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug‘ilish koeffitsiyenti **28,7** promilleni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan plus **0,8** promillega ko‘paygan (2022- yilning yanvar- sentabr oylarida **27,9** promille bo‘lgan).




VAFOT ETGANLAR

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **12,9** mingta o‘lim qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga o‘lim koeffitsiyenti **4,9** promille ni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan minus **0,2** promillega kamaygan (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **5,1** promille).


O‘limning asosiy sabablar bo‘yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr, kishi




2023- yilning yanvar - sentabr oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **54,9** % i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **8,1** % i – o’simtalardan, **8,7** % i – nafas olish a’zolari kasalliklaridan, **4,6** % i – baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, **4,3** % i – ovqat hazm qilish a’zolari kasalliklaridan, **0,8** % i – yuqumli va parazitar kasalliklardan, **18,6** % i boshqa kasalliklardan vafot etganlar.

QAYD ETILGAN NIKOHLAR



2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **18780** ta nikoh qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikoh koeffitsiyenti **7,2** promille tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **0,7** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **7,9** promille bo‘lgan).


NIKOH DAN AJRALISHLAR



2023- yil yanvar-sentabr oylarida **2,6** mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo‘lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti **1,0** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan kamayganligi kuzatildi (2022- yil yanvar-sentabr oylarida **1,1** promille bo‘lgan).

Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr



2023- yil yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **53,6** % i farzandsiz, **24,3** % i bitta farzand bilan va **22,1** % i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.


AHOLI MIGRATSIYASI

(Doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar)

2023- yil yanvar-sentabr oylarida Qashqadaryo viloyati bo'yicha doimiy yashash maqsadida ko'chib kelganlar jami soni **6936** kishini tashkil etdi. Doimiy yashash maqsadida ko'chib ketganlar soni jami **12012** kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi - **5076** kishini tashkil etadi. 2022- yilning mos davrida -**5460** kishi bo'lgan.

Qashqadaryo viloyat bo'yicha ko'chib kelganlarning taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr, (kishi)




2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **6,9** mingta ko'chib kelganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib kelish koeffitsiyenti **2,6** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan - **0,2** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **2,8** promille bo'lgan).

Qashqadaryo viloyat bo'yicha ko'chib ketganlarning taqsimlanishi

2023- yil yanvar-sentabr, (kishi)

2023- yilning yanvar-sentabr oylarida **12,0** mingta ko'chib ketganlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga ko'chib ketish koeffitsiyent **4,6** promilleni tashkil etgan hamda 2022- yilga nisbatan **-0,3** promillega kamayganligi kuzatildi (2022- yilning yanvar-sentabr oylarida **4,9** promille bo'lgan).



Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtida muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shilib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayrıldi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalikklar, patologik holatlар va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.



Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarni qayta ishslash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarni qayta ishslash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migrations o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Demografiya va mehnat statistikasi bo‘limi

Tel: 75 221-15-84, 70-70